


O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish  
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining  
malaka talablari*

Toshkent-2023



**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat transport universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil «~~11~~»  
08 dagi 367 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Oliy ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

1.	<i>61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi..	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	<i>61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish</i> ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	<i>61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’ektlari.....	5
1.2.3.	<i>61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.4.	Kvalifikatsiyalar.....	9
	Bibliografik ma’lumotlar.....	10
	Kelishuv varag‘i.....	11

## **1. 61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi**

**61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo‘llanish sohasi.**

#### **1.1.1. 61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talabi 61040300 – *Yo‘l harakatini tashkil etish* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:**

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalarini;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilarini va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

##### **1.2.1. 61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:**

**61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish** – “Transport xizmatlari” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari davlat va nodavlat korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, davlat boshqaruv organlarida yo‘l harakatini tashkil etish va boshqarish bo‘yicha kompleks masalalarni yechish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtiroy etishni o‘z ichiga oladi.

### **1.2.2. 61040300 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

- O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligi departamenti yo'l harakati xafsizligi bosh boshqarmasi;
- O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi harakat xavfsizligi xizmati boshqarma va bo'limlari;
- O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi qoshidagi Avtomobil yo'llar qo'mitasi yo'l harakatini tashkil etish xizmati bo'limlari;
- faoliyati avtomobil transporti bilan bog'liq bo'lgan korxona, tashkilot va jismoniy shaxslar;
- yo'l harakatini tashkil etish faolyaiti bilan shug'illanuvechi davlat va nodavlat tashkilotlari;
- haydovchilarni tayyorlaash, qayta tayyorlash, stajirovkasini o'tkazish va malakasini oshirish tashkilotlari;
- mактабгача та'лим мұассасалари, мактаблар ва та'лим мұассасалари;
- транспорт жарыонлари ва ілмій-тәдқиқтот жарыони.

*Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan talim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.*

**61040300 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruvi organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.**

### **1.2.3. 61040300 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- ishlab chiqarish faoliyati;
- ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish faoliyati.

### **1.2.4. 61040300 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.**

**61040300 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:**

#### **Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

–ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda sohaga oid mavzularda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda ishtirok etish;

–internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish;

–yo'l harakatini tashkil etish va boshqarishga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rGANISH;

–kasbiy faoliyat ob'ekti yo'nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o'rGANISH;

–ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o'tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;

–ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

–tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etishda qatnashish;

–ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish.

### **Loyihaviy-texnologik faoliyatda:**

- transport sohasida yo'l harakati xavfsizligi jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlarni loyihalash;
- ko'cha-yo'l tarmoqlarida harakatni tashkil etish loyihalarini ishlab chiqish;
- yo'l harakati xavfsizligi jarayonining, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda yangi boshqaruv-texnologik loyihalarini yaratish;
- yo'l harakatini tashkil etish sohasida samarador yo'nalishlar loyihalarini yaratish.

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- yo'l harakati faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- yo'l harakati jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora tadbirlarni va resurslarini rejalashtirish;
- yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish va monitoringini olib borish;
- yo'l harakatini tashkil etishda texnik vositalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni qo'llay olish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida tashish jarayonlarini nazorat qilish;
- transport va piyodalar oqimlarini xavfsiz va sifatli boshqarish;
- yo'l harakatini boshqarish jarayonini tashkil qilish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- yo'l harakatini tashkil etishda atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

### **Ishlab chiqarish faoliyatida:**

- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- ko'cha-yo'l tarmoqlarida harakat xavfsizligini ta'minlashda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsata olish;
- amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- yo'l harakatini tashkil etish va boshqarishda qo'llanilayotgan ilg'or texnologik tadbirlarni o'rGANISH va amaliyotga tatbiq etish;
- harakat xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarni belgilash bo'yicha to'liq hajmdagi zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis sifatida mustaqil amaliy faoliyatni amalga oshirish.

### **Ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

- yo'l harakatini kompleyks rejalashtirish usullaridan foydalana olish;
- axborot-kommunikatsiya tizimlaridan foydalanish, tuzatish va yo'l harakatiga xizmat ko'rsatish;
- yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalaridan foydalanish;
- svetoforlar, yo'l belgilari, yo'l belgi chiziqlarini va yo'l to'siqlarini aniq sharoitlarda qo'llay olish;
- yo'l harakati xavfsizligini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni aniq masalalarni hal etish jarayonlarida qo'llash;
- ko'cha-yo'l tarmoqlarining xavfli uchastkalarini aniqlash;
- ko'cha-yo'l tarmoqlarining xavfli uchastkalarida xavfsizlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

-real sharoitlarda ko'cha-yo'l tarmoqlarining o'tkazuvchanlik qobiliyatlarni aniqlash va oshirish usullarni qo'llash;

- yo'l-transport hodisalarini kelib chiqish sabablarini o'rganish;
- ko'cha-yo'l tarmoqlarida sodir etilgan yo'l-transport xodisalarini rasmiylashtirish;
- yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalardan foydalanish;
- haydovchilarni tayyorlash, malakasini oshirish, stajirovkasini tashkil etishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish;
- ko'cha-yo'l tarmoqlaridagi xavfli uchastkalarni aniqlash va ularni xavflilik darajasini pasaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- ko'cha-yo'l tarmoqlarining o'tkazuvchanlik qobiliyatlarini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;
- yo'l-transport xodisalarini rasmiylashtirish, avtotexnik ekspertizalarni tashkil etish;
- transport vositalarni baholash ekspertizalarini tashkil etish va amalga oshirish;
- yo'l harakati xavfsizligi sohasida so'g'rita faoliyatini takshil etish;
- yo'l harakatini tashkil etish tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

## **2. 61040300 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrلarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzARB masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tessavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- korporativ axborot tizimlarini, statistik tahlil va hisobotlarni tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;
- sohada boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;
- strategik tahlil qilish, raqobatdoshlikni ta'minlashga qaratilgan tashkilot strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- ko'cha-yo'l tarmoqlarining real sharoitlarida yo'l harakatini tashkil etish usullarini qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- loyihalar, shartnomalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalari va avtomatlishtirilgan tizimlarini qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- transport va piyodalar oqimlarini modellashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- soha bo'yicha ilg'or statistik ma'lumotlarni tahlil qilish va foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- harakat xavfsizligini tashkil etish va boshqarishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarini qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lish.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmакetligda kiritiladigan **majburiy** va **Tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

o'quv (tanishuv) amaliyoti — iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

malakaviy (ishlab chiqarish) amaliyoti — umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarini mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti — ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg'or korxona, tashkilot va muassasalar, xorijiy va qo'shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta'lim va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o'tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash oliy ta'lim muassasalarini tomonidan amalga oshiriladi.

#### **2.3.1. 61040300 – Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5550</b>	<b>185</b>
<b>Tanlov fanlar</b>	<b>930</b>	<b>31</b>
<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>540</b>	<b>18</b>
<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>180</b>	<b>6</b>

**2.3.2. 61040300 – Yo‘l harakatini tashkil etish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5550</b>	<b>185</b>	
1.01	O’RT1204	O‘zbek (rus) tili	120	4	2
1.02	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	MK 1103	Mutaxassislikka kirish	120	4	1
1.04	XT1408	Xorijiy til 1,2	240	8	1,2
1.05	FIZ1210	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM1315	Oliy matematika 1,2,3	420	14	1,2,3
1.07	O’EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	TTAT1104	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	180	6	1
1.09	MKG1104	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	2
1.10	MS2404	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	3
1.11	SIM3604	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	7
1.12	FAL3504	Falsafa	120	4	3
1.13	EKA3504	Ekologiya	120	4	6
1.14	XFX4704	Hayot faoliyati havfsizligi	120	4	8
1.15	TM 1115	Texnik mexanika	180	6	3
1.16	ATXT 1116	Avtomobillarda tashishda xavfsizlikni ta’minalash	180	6	3
1.17	YHXQ 1117	Yo‘l harakati xavfsizligi qonunchiligi 1,2	360	12	4,5
1.18	TIO 1118	Transportda inson omili	180	6	4
1.19	YLQUF 1119	Yo‘llarni loyihalash, qurish va ulardan foydalanish 1,2	270	9	5,6
1.20	HTSMO 1120	Haydovchilarni tayyorlash, stajirovkasi va malakalasini oshirish uslubiyoti	180	6	7
1.21	YHTE 1121	Yo‘l harakatini tashkil etish 1,2	360	12	6,7
1.22	YHBTV 1122	Yo‘l harakatini boshqarishning texnik vositalari 1,2	300	10	7,8
1.23	YHE 1123	Yo‘l harakatini kompleks rejalahtirish	180	6	4
1.24	YTHET 1124	Yo‘l-transport hodisalari ekspert tahlili 1,2	240	8	5,6
1.25	YHSI 1125	Yo‘l harakatida sug‘urta ishi	180	6	3
1.26	YHTAHR1126	Yo‘l harakati texnologiyasi asoslari va harakatni rejalahtirish 1,2	240	8	7,8
1.27	YTBE1127	Yo‘l-transport baholash ekspertizasi 1,2	240	8	7,8
1.28	JTS1204	Jismoniy tarbiya va sport	120	4	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>930</b>	<b>31</b>	<b>4,5,6,8</b>
		<b>Jami</b>	<b>6480</b>	<b>216</b>	
		<b>Malaka amaliyotlari</b>	<b>540</b>	<b>18</b>	<b>2,4,6,8</b>
		<b>Davlat attestatsiyasi</b>	<b>180</b>	<b>6</b>	<b>8</b>
		<b>Jami</b>	<b>720</b>	<b>24</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

**2.4. Kvalifikatsiya:** yo‘l harakati muhandisi.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 656. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, profil, o'qib-o'rghanish natijalari, o'quv sikli, ilmiy-tadqiqot, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, yo'l harakatini modellashtirish, yo'l harakatini tashkil etish, harakat xavfsizligini tashkil etish, statistik ma'lumotlar, transport va piyodalar oqimlarini boshqarish, yo'l harakatini boshqarishning texnik vositalari va avtomatlashtirilgan tizimlari, haydovchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash, stajirovkasini va malaka oshirishini tashkil etish, yo'l harakatini kompleks rejalshtirish, yo'l harakatida so'g'rita ishi, yo'l haraktaini tashkil etish tadbirlarini iqtisodiy asoslash.

# KELISHUV VARAG'I

IShLAB ChIQILDI:

Toshkent davlat transport universiteti

Rektor

O. Abduraxmanov

202\_yil «  
M.O.



KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Transport vazirligi

Vazir o'rindbosari

I.Abdugafarov

M.O.



O'zbekiston Respublikasi IIV JXD  
YHXX

Boshliq o'rindbosari

E.Bozorov

M.O.



O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'imi rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor

Sh.Yakubov

M.O.



I.Karimov nomidagi  
Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor

S.Turabdjanov

M.O.



Toshkent davlat transport universiteti

61040300-Yo'l harakatini tashkil etish ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari va o'quv  
rejasining ishlab chiquvechilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar  
iste'molchilari o'rtaida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

"\_\_" 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi IIV JXD YHXX boshlig'i o'rinnbosari E.X.Bozorov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori S.M.Turabdjanov, Toshkent davlat transport universiteti rektori O.K.Abduraxmanovlar birgalikda Toshkent davlat transport universitetida ishlab chiqilgan 61040300-Yo'l harakatini tashkil etish bakalavriatura ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

61040300-Yo'l harakatini tashkil etish bakalavriatura ta'lim yo'nalishi malaka talablari hamda o'quv rejasi ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son qaroriga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja, fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi  
JXD YHXX boshlig'i o'rinnbosari



E.X. Bozorov

Islom Karimov nomidagi  
Toshkent davlat texnika  
universiteti rektori



S.M. Turabdjanov

Toshkent davlat transport  
universiteti rektori



O.K. Abduraxmanov